

OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

**Allabergan Ro'zimovich Bobojonov Sobir  
Boymirzayevich Ro'ziboyev**

**AHOLI YASHASH  
JOYLARI KADASTRI**

**A.R.Bobojonov, S.B.Ro'ziboyev**

/Aholi yashash joylari kadastr / O'quv qollanma, T., Tafakkur,  
2011-y., 176 b.

**Taqrizchilar:**

**T.Ro'zmatov** - Toshkent viloyati Yer resurslari va davlat kadastrni  
boshqarmasining "Yerdan foydalanish va yertuzish" bo'limi boshlig'i;

**E.X Nurmatov** - Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti dotsenti,  
t.f.n.

0'quv qo'llanmada aholi yashash joylarining kadastrini yaratish va  
yuritishning nazariy hamda ba'zi bir amaliy qinalari yoritilgan. Jumladan,  
aholi punktlarini joylashtirish va rivojlanlirish, aholi yashash joylari  
kadastr tizimining mazmuni, yer kadastr texnologiyasini tashkil etish va  
yuritish, yer va ko'chmas mulklami ro'yxatga olish, hisobini yuritish va  
baholashning usullari to'g'risida to'xtab o'tilgan.

Qo'Milanma oliy o'quv yurtlarining Geodeziya, kartografiya va kadastr,  
Yer tuzish va yer kadastr, Kasb ta'lifi (Yer tuzish va yer kadastr)  
yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavr tajabalariga hamda  
Ko'chmas mulknini baholash va bino inshootlar

- kadastr mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlargacha  
mo'ljallangan
- 
- 

*Oliy o'quv yurtlari O'quv-metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
ining qarori bilan Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya  
qilingan*

ISBN 978-9943-372-43-6

©Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti (TIMI), 2011-y. ©  
«TAFAKKUR», 2011-y.

## **KIRISH**

Tabiiy resurslar orasida yer, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. 0'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining ma'lumotlariga qaraganda, mamlakatimizning umumiy yer maydoni 2008-yil 1 -yanvar holatiga ko'ra, 44410,3 ming hektarni tashkil etadi. Ushbu maydonning 90 foizdan ortig'i davlat tomonidan egalik qilish, foydalanish, mulk va ijara huquqlari asoslarida turli-tuman qishloq hamda noqishloq xo'jalik korxona, muassasa va tashkilotlarga, fermer xo'jaliklariga, shuningdek, fuqarolarga biriktirilgan. Ular ushbu maydonlarda o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshiradilar.

0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida qayd qilinadiki, yer resurslari respublikaning milliy boyligidir. Ulardan oqilona va samarali foydalanish zarur. Bu esa ko'p jihatdan yerning eng muhim xossalari va xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganligiga bog'liq. Bu esa, eng avvalo, yerdan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmuasini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish (va amalda to'plangan tajribalarga rioya qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan 0'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, 1993-yil 6-maydagi «Yer solig'i to'g'risida»gi 1998-yil 28-avgust- dagi «Davlat yer kadastri to'g'risida»gi, 2000-yil 15-dekabrdagi «Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun», 1998-yil 31-dekabrdagi 543-sonli «O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida»gi qarorlari va boshqa qator me'yoriy hujjatlar yerdan foydalanishni tashkil etishga yo'naltirilgan asosiy davlat tadbiri hisoblangan yer kadastriga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi hamda yer uchastkalariga bo'Mgan huquqlar doirasi kengaydi.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumдорligи va iqtisodiy samaradorligini oshirish — bu iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo'jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldarlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, zarnon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-

ketligini joriy etish, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullarini qoilash, o‘g‘itlash, qulay agrotexnika muddatlarni amalga oshirish, o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo‘li bilan boshqarishni talab qiladi. Bunda ham yer kadastri yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning muhim rejasi sifatida namoyon bo‘ladi.

0‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastri yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy tartibi to‘g‘risidagi, ulaming toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va qiymati to‘g‘risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o‘rni va o‘lchamlari to‘g‘risidagi yerlarni yer uchastkalari mulkdorlariga, yer egalariga va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastri yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorlarini asoslash, xo‘jalik faoliyatiga baho berish maqsadida 0‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangandir. Davlat yer kadastri muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning ma’lumotlaridan iqtisodiy tarmoqlarining turli-tuman masalalarini hal qilishda, jumladan, yer solig‘i, ijara haqini belgilashda, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorliklarini rejalashtirishda va boshqa masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Shuni alohida e’tirof etish zarurki, bugungi bozor iqtisodiyoti qaror topayotgan sharoitda yer kadastrini yuritish nafaqat qishloq xo‘jalikyerlarida, balki aholi punktlari yerlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, bugungi kunda respublikamizda Toshkent shahri, 120 ta shahar, shundan 55 tasi respublikalicha va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar, 115 ta shaharchalar va 1000dan ortiq qishloq aholi punktlari mavjud. Ular tasarrufidagi yer maydonlari mamlakat yer fondining 1,8 foizini tashkil etishiga qaramasdan, mamlakat iqtiso- diyotida bu yerlar katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham yer kadastri bilan bir qatorda aholi punktlari yerlarning kadastrini yuritish bo‘yicha zaruriy bilimlarga ega bo‘lish talabalarni yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga yetarli

zamin tayyorlaydi. «Aholi punktlari yerlarining kadastrı» ilmiy fan sifatida yerni iqtisodiyot tarmoqlarida, jumladan, aholi punktlarida ishlab chiqarish vositasi ekanligi to‘g‘risidagi ta‘limotga, bozor iqtisodi asosida rivojlanayotgan demokratik jamiyatning yer munosabatlariga hamda dunyoni bilishning dialektik uslubiyatiga asoslanadi. «Aholi punktlari yerlarining kadastrı»ni o‘rganish u bilan yonma-yon bo‘lgan, chambarchas bog‘langan ilmiy fanlar (iqtisodiyot nazariysi, geodeziya, yer huquqi, yer tuzishni loyihalash, aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslarini, yer kadastrini, kartografiya, yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash, yer monitoringi, tuproqshunoslik, melioratsiya va boshqalar)ning nazariy va amaliy ishlanmalariga tayanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma geodeziya, kartografiya va kadastr yo‘nalishida bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarining dasturiga muvofiq holda yozilgan bo‘lib, u mamlakatimizdagi aholi punktlari yerlarining kadastrini tashkil etish va yuritishning hozirda mavjud bo‘lgan ilg‘or tajribalarini yoritadi. Qo‘llanmadan yuqorida qayd qilingan yo‘nalishdagi magistrler ham foydalanishlari mumkin.

Kitobni nashr qilishda tashkiliy jihatdan yordami uchun B. Jon-temirovga mualliflar o‘zlarining minnatdorchiliklarini izhor qiladilar.

## **I-BOB. AHOLI PUNKTLARI YERLARI KADASTRINI YURITISHNING NAZARIY MASALALARI**

### **1.1. Yer - tabiiy resurslarning muhim turi va aholi yashash joylarining makoni sifatida**

Yer - bu shunday bir narsaki, usiz sayyoramizda hayot kechirish umuman mumkin emas. Yer tabiiy muhitning tarkibiy qismi hisoblanadi. U opining kenglik sharti, relefni, tuproq qatlami, o'simlik dunyosi, yer osti boyliklari, suvmanbalari bilan tavsiflanadi. Yer qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasidir hamda aholining yashashi va xalq xo'jaligining barcha boshqa tarmoqlarini jovlashtirish uchun kenglik asosi boiib xizmat qiladi.

Yer tabiat mahsulidir. U o'zining o'lchamlari bo'yicha chegaralangan, kenglikda birj oy dan ikkinchisiga ko'chirib bo'lmaydi, tabiatning va turli antropogen omillaming ta'siriga uchraydi. Yerning yuza, ustki qismi - tuproq unumdonlik qobiliyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Turli o'simliklar va ekinlar ularga zarur bo'lgan namlik hamda ozuqa moddalar bilan ta'minlay olish xususiyatiga tuproqning unumdonligi deyiladi. Bundan ko'rindaniki faqatgina yer asosiy ko'chmas mulk boiishi mumkin, qolgan barchasi, va'ni yer maydoniga bog'langanlari - «ikkilamchi ko'chmas mulklar»dir, chunki ularning asosida inson mehnati yotadi. Aynan shu jihatdan ham yer - ko'chmas mulk hamda bino va inshootlar ikkilamchi ko'chmas mulklar tushunchalari o'rtasidagi prinsipial farq shundan iboratdir.

Yerga egalik qilish va undan foydalanish yerning ostida joylashgan fizik obyektlar singari yer tushunchasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yerga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni turli salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish hozirgi hamda kelgusi avlodlar uchun muhimdir.

Ushbu o'quv qo'llamnada yer sharini to'la qamrab olgan uning ustki qismiga, kengligiga, u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan barcha turlituman obyektlarga, shuningdek yerning ostki qismida joylashgan tog'jinslari va minerallarga alohida diqqat-e'tibor qaratiladi. Yer tushunchasi suv bilan band bo'lgan, masalan dengiz va ko'liar, bino va inshootlar, shuningdek xilma-xil tabiiy o'simliklar tarqalgan hududlarni ham o'z ichiga oladi.

Yer, aniqrog'i, tuproq bilan bog'liq bo'lmanan obyektlar, masalan, avtomobillar, hayvonlar va odamlar, garchi o'zlari egallagan kenglikdan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lsalar-da, ular yerning bir qismini tashkil eta olmaydilar.

Yer va undan foydalanishda qator nuqtai nazardan qarash mum-kin. Ekologik nuqtai nazardan yer ko'p sonli yirik organizmlarning yashashi va ko'payishi uchun muhim ahamiyatga egadir. Insonni yerga joylashish omili esa ichki va xalqaro munosabatlarga xizmat qiladi. Bular natijasida o'zlari joylashgan hudud chegaralarining dahlsizligi uchun yoki o'zlarining xususiy mulklerining dahlsizligi uchun kurashadi, ularni imkonli boricha kengaytiradi, quradi, natijada, rivojlanish davom etaveradi.

Qishloq xcfjaligi va noqishloq xo'jaligi mohiyatidagi yer maydonlarining rolini tavsiflashda, odatda ulardan foydalanish jarayonida hududning quyidagi xususiyatlari namoyon bo'lishi qayd qilinadi: kenglik asosi; umummehnat vositasi; umummelinat predmeti; asosiy ishlab chiqarish vositasi; chegaralangan tabiiy omil; rekreatsion resurs; yer osti qazilma boyliklari manbasi. Shularni hisobga olgan holda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlardan kelib chiqib hamda aholining turmush faoliyatida, shuningdek, aholi punktlarida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishga ularning tarkibiy elementlari rolini hisobga olib yer maydonlarining ahamiyati to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz,

Yerning kenglik asosi sifatidagi ahamiyati faqatgina barcha aholi punktlarini rivojlantirishda aks etibgina qolmasdan, balki inson hayot-faoliyatining barcha boshqa sferalarida ham namoyon bo'ladi.

Yer maydonlaridan insonlar doimo o'zlarining yashash joyini qurishda va, umuman aholi yashash punktlarini rivojlantirishda foydalangan. Bunda yer oddiy asos bo'libgina qolmasdan. balki umumhududiy - operatsion asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholi punktlari yerlarining asos sifatidagi xususiyati insonlarni joylashish o'rni sifatida uning faqatgina maydoni emas, balki inson hayot-faoliyatining moddiy shakllarining hajmi sifatida ham to'la tarzda namoyon bo'ladi. Yer umummoddiy asos bo'lgani holda ishchining yashash joyi bilan ishlab chiqarishning aloqasini, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik o'zaro bog'liqligini

ta'minlaydi. Bunda ishiab chiqarishni tashkil etish, ish vaqtini, moddiy va boshqa resurslarni tejash uchun maqbul hududiy-ishlab chiqarish tarkibi yaratiladi.

Yerning umumhududiy asos sifatidagi ahamiyatini e'tirof etish bilan bir qatorda aholi punktlaridagi lining shunday bir xususiyatini ham hisobga olish zarurki, bu - unda binolar, inshootlar va boshqa moddiy vositalarning hududiy joylashganligidir. Inson tomonidan yaratilgan ijtimoiy-mehnat vositalarini yerga joylashganlik asosi yer resurslaridan foydalanish va ularni baholash jarayonida hisobga olish talab qiladigan aholi punkti yerlarining muhim xususiyati hisoblanadi. Aholi punktining hududi aniq qayd qilingan joyga, maydonga, chegaralarga ega bo'ladi va ma'lum yerdan foydalanish ko'rinishini oladi.

Yer maydonining kenglik xususiyati bilan undan foydalanishning boshqa muhim xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ular shu bilan tushuniladiki, aholi yashash joylaridagi mehnat vositalari tizimli tarzda o'zgarib turadi (mavjudlarini qayta qurishadi va yangi binolar quradilar, injelerli tarmoqlar yotqizishadi va hokazo). Bular o'z navbatida yerga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini o'tkazadi (tuproqning unumdar qismini sidirib olishadi, chuqurlar va transheyalar qazishadi, tuproqlarai aralashtirishadi). Shu bilan bir qatorda yer maydonining kenglik xususiyati foydalanish jarayonida yuz beradigan boshqa, qisman, tuproqning unumdar qatlamining mavjudligi bilan belgilanadigan sifat ko'rinishlaridan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi.

Iqtisodiyot nazariyasida ishiab chiqarish jarayoni inson (jamiyat) va tabiatning o'zaro ta'siri sifatida qaraladi. Ishiab chiqarishning rivojlaniishi bilan inson tabiatni o'zgartiradi, yer maydonlaridan ancha faol, to'g'ri va oqilona foydalana boshlaydi.

Ma'lumki, mehnat predmetlari ishiab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi. Odatda, mehnat predmetlari deganda, inson mehnati yo'naltirilgan narsalar, ya'ni bo'lgusi mahsulotlarning moddiy asosini tashkil etuvchi narsalar tushuniladi. Yer mehnatning moddiy resursi bo'lgani holda barcha mehnat predmetlarini tay-yorlash uchun birlamchi asosni tashkil etadi. Yuqorida qayd qilinganlar yerning umummehnat predmeti sifatidagi ahamiyatini tavsiflaydi.

Shu bilan birga, yer nainki umummehnat predmeti hisoblanadi, balki u umummehnat vositasi hamdir. Mehnat vositalariga odatda, mehnat qurollari va umum ishlab chiqarish sharoiti (ishlab chiqarish binolari, yo'llar, aloqaning boshqa vositalari hamda yerning o'zi) kiradi. Bunda yer ishlab chiqarish jarayoniga insонning ta'sirini kuzatuvchisi sifatida namoyon bo'Madi (tomorqa yer uchastkalarida ekinlarni yetishtirish uchun tuproqning unumdon qatlamidan loydalanish, hududni ko'kalamzorlashtirish va hokazo).

Aholi yashash punktlari chegarasida qishloq xo'jalik yerlari, tomorqalari, ishchi va xizmatchilarining poliz yerlari va dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalilaniladigan boshqa yeriar mavjud bo'ladi. Bu yerda ham o'rmon xo'jaligi singari (o'rmon istirohatgohlari, bog'lar va boshqa) yer maydonining asosiy tavsifi sifatida unumdorlikka xizmat qiladi hamda bu yerda u asosiy ishlab chiqarish vositasi holatida namoyon bo'ladi.

Yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi muhim xususiyat- laridan biri yana shundan iboratki, barcha ishlab chiqarish vositalari mehnatning, ya'ni inson mehnatining mahsulidir, yer esa tabiat inahsulidir. Shu bilan bir vaqtida ishlab chiqarishga tortilgan yer maydoniunda ishlaganinsonlarmehnatinio'zidamujassamlashtiradi. Yerni ishlanish dalili nainki undan samarali foydalanan zaruriya- tini, balki tashqi tabiat in'om etgan boylik sifatida uni obyektiv baholash ko'rsatkichlarini aniqlash va o'z navbatida yuqoridaqilar bilan birga o'zida mujassamlashtirgan inson mehnatini ham hisobga olish zaruriyatini tug'diradi. Aholi yashash punktlari (shaharlar va qishloqlar)ning rivojlanishi, jumladan yirik shaharlar qurilishining tez suratlarda o'sishi mayda tosh, qum, tabiiy yonilg'i va qazib olinadigan boshqa qazilma boyliklarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Shuning uchun ham yer osti qazilma boyliklarining manbai sifatida yerning o'ziga xos o'mini, hududiy chegaralanganligi hamda ma'lum bir geografik joyga ega bo'lganligini (regionlar o'rtasida bir joydan ikkinchisiga ko'chirib bo'lmaslik foydalilaniladigan yerlarning qiymatini oshiradi) hisobga olish doimo o'sib boruvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu holat bilan aholi punktlari yerlarining quyidagi muhim xususiyatlari bog'liq va bular anchagini qulay joylashganlik, yuqori unumdorlik.

Yer maydonlarining chegaralanganligi uning haqiqatan ham noyobligini va oxir-oqibatda iste'mol qiymatining oshishini

bildiradi. Bu esa unumdorligi past bo‘gan yer uchastkalarini ham o‘zlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Yer maydonlarining tashqi haqiqiy qiymatlari, balki lining alohida tarkibiy elementlari bo‘yicha ham hududlar chegaralangandir.

Alohibda ahamiyatga molik bo‘lgan omillardan biri - bu haydala- digan yerlar va boshqa mahsuldor yerlarning chegaralanganidir. Turli-tuman qurilishlarning rivojlanishi aholi punktlari, sanoat va boshqa turdag'i qurilishlar hududlarining kengayishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar maydonini qisqartiradi va, natijada, bu yer fondi tarkibining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Shaharlarning o‘sishi bilan hududning ifloslanishi oshadi, yon atrofdagi yer turlarida rekreatsion tanazzul vujudga keladi.

Shuningdek, qishloq aholisining shaharlarga ko‘chishi, uncha katta bo‘lмаган qishloqlar aholisining keskin kamayib ketishi shu atrofdagi yerlardan foydalanishning yomonlashuviga olib keladi. Bularning barchasi yer resurslariga bo‘lgan salbiy ta’sirning kucha- yishiga hamda oxir-oqibatda shu yerdagi mahalliy aholi yashash sharoitining yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun yer maydonlarini turli qurilishlar bilan band bo‘lishidan hamda ularni ifloslanishdan muhofaza qilishning ahamiyati ham doimiy ravishda o‘sib boradi.

Yer faqatgina ishlab chiqarishning moddiy omili bo‘libgina qolmasdan, balki joyning landshafti, iqlimning parametrlari va gidrosfera bilan birlgilikda almashtirib bo‘mmaydigan rekreatsion resursni tashkil etadi. U esa o‘z navbatida aholini mehnat va dam olish sharoitini yaxshilanishiga zamin yaratadi. Bu hoi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Aholi yashash punktlarining mohiyati va muhim elementlarini ko‘rib chiqish jarayonida yuqorida e’tirof etilganlici, yer maydonlari bilan bir qatorda ushbu aholi punktining aholi soni va ular turmush tarzining moddiy shakllari (ishlab chiqarish) lining asosiy belgilari bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ijtimoiy ishlab chiqarish aholi turmushini va aholi yashash ptinklari rivojltmislning moddiy asosini tashkil etadi; Shunihg uchun ham ijtimoiy Ishlab chiqarish tarkibi aholi yashash punktlari yerlaridan foydalanish mohiyatini aniqlash uchun boshlang‘ich asos sifatida qabul qilinadi.

Iqtisodiyot nazariyasidan ma’iumki, har qanday ishlab chiqarish o‘zida uchta o‘zaro bog‘liq bo‘lgan omillarni jamlaydi: ishchi kuchi,

mehnat predmeti va mehnat vositalari. So‘nggi ikki omil birgalikda ishiab chiqarish vositasi sifatida gavdalanadi va ishchi kuchidan I‘arqli oiaroq ishiab chiqarishning omilini yaratadi. Ishchi kuchi esa ishiab chiqarishning xususiy omilini tashkil etadi, ammo yagona ishiab chiqarish jarayoniga birlashsa, umumiy ishchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ishiab chiqarish omillarining ijtimoiy ishiab chiqarish shakllari bilan o‘zaro bog‘liqligi sharoitida yerning tutgan o‘rni va rolini aniqlaymiz. Ma’lumki, ishchi kuchi va ishiab chiqarish vositalari (mehnat predmeti va mehnat vositasi) ijtimoiy ishiab chiqarish omillari hisoblanadi. Ushbu omilaming qo‘shilishi va o‘zaro ta’siri mavjud ishiab chiqarish usulining aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy shaklida aks etadigan ma’lum ishiab chiqarish munosabatlarning modeliga (ishchi kuchi) qo‘shilish zaruriyatni bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, ishiab chiqarish munosabatlari sferasida aholi punktlarining yerlari yer munosabatlari obyekti rolini bajaradi.

Shuni hisobga olish zarurki, yer maydonlari nainki ma’lum bir ishiab chiqarish munosabatlari, balki aholi yashash joylarining ijtimoiy nuqtai nazardan qurilishini mavjud talablariga rioxal qilingan holdagi modellarining hayot faoliyatida va ishiab chiqarish jarayonida tadbiq qilinadi, negaki yerdan foydalanish ijtimoiy masalalarni hal qilish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Ijtimoiy ishiab chiqarish har qanday ishiab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgani holda o‘zining yakuniy maqsadi boiadigan iste’molga egadir. Ishiab chiqarish iste’moli (qurilishda materiallarni sarflash va boshqa) hamda yer resurslaridan foydalanish nuqtai nazardan shaxsiy iste’mol (uy-joy, oziq-ovqat, kiyim -kechak va boshqalar) bilan bir qatorda quyidagilar bo‘yicha ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyatga molik yerdan foydalanish amalga oshadi. Aholi punktlarida ishchi kuchi ijtimoiy ishiab chiqarish rivojlanishining yakuniy natijasi boiadi, ammo mulkchilikning turli ko‘rinishlarida u ishiab chiqarishning shaxsiy omili bo‘lib qolaveradi. U o‘ziga va jamiyatga mehnat qiladi, natijada ijtimoiy shaklni oladi.

Aholi yashaydigan joylardagi ishiab chiqarishning moddiy omillari asosan ishiab chiqarish fondlari (sanoat va qishloq xo‘jalik binolari va inshootlari), noishlab chiqarish fondlari, yer bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ishiab chiqarish hamda ijtimoiy infrotizimlar obyektlari ko‘rinishida bo‘ladi.

Mulkchilikning turli-tuman shakllarida raavjud bo'lgan vn rivojlanayotgan bir sharoitda bu fanlar hamda yer resurslari ahull turmush darajasini, shuningdek, ishlab chiqarish samaradoiiif'ini oshirish vositasi sifatida mehnat jamoalari va korxonalar tomonidan foydalaniladi, ya'ni ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalislijiji ega bo'ladi. Shunday qilib, aholi punktlari yerlarining asosi\ mohiyati shundan iboratki, ular umumhududiy asos, umummchnul predmeti va vositasi, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish vn ko'kalamzorlashtirishda esa asosiy ishlab chiqarish vositasi roliui bajaradilar.

**Yerdan foydalanish** - bu aholi punktlaridagi ijtimoiy ishlfib chiqarishning tarkibiyy qismidir. Shuning uchun yerlardan loy dalanish va ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh vazifalari ham ular sainaradorligini oshirishdir. Ijtimoiy ishlab chiqarish samn radorligini oshirishni e'tiborga olgan holda aholi punktlari yerlaridan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega ekanligini qayd qilish maqsadga muvofiqdir.

Ko'pgina mamlakatlarda yerga nisbatan «ko'chmas narsa» atamasi qo'mlaniladi. Boshqalaresayermaydoni bilanko'chmasmulk deb yuritiladigan, yerda joylashgan bino va inshootlar o'rtasidagi farjni ajratishga harakat qiladilar. Kadastr muammolarini o'rganish va hal qilish jarayonida «yer» ko'p qirrali mazmunda ishlatiladi, Ko'chmas mulk esa insonlar tomonidan yaratilgan inshootlar hisoblanadi.

Yerning liar bir alohida olingen mamlakat iqtisodida tutgan o'rni va roli doimo aniq bo'lavermaydi, ammo u katta ahamiyatga egadir. Yerga bo'lgan ishonchli himoyalangan huquqsiz qat'iy rivojlanishni ta'minlab bo'lmaydi, negaki, usiz sarmoyadorlarda ham uzoq muddatli kapital mablag'larni bu yerga sarflashga xohish tug'ilishi mushkul bo'ladi. Bu qoida iqtisodiyotning agrar sekretorini rivojlantirish uchun ham sanoat, aholi punktlari va obyektlarini qurish uchun ham taalluqlidir. Olingen rasmiy ma'lumotlarga iqara^anda, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning

20,0 % ga yaqini yer, ko'chmas mulk hamda ularning qiymati, shuningdek, ushbu resurslarning baholarini oshirish maqsadida ulardan foydalanishni muvofiqlashtirish hisobiga yaratiladi.

**Aholi punktlari yerkari kadastro va yerkarni ro'yxatga olish.** Yerga bo'lgan turli - tuman huquqlar, yerning qiymati va undan

и иии и iy jihatdan mustaqil tushunchalar bo'lsa-da, к I и ,n i bilan chambarchas bog'liqdir. Yerning har bir

..... . г и I nishqarilishga muhtojdir. Buning uclnin yerning t i i m 1 1 1 1 1(i\ ma'111 motlarni aniq ro'yxatga olish zarur: egaiik ill |In! i It ii' 111 lumoyasini kafolatlash uchun mulk huquqini, yer

• HI i ! HI \ , ko'chmas mulkdan soliq undirishda, shuningdek I n i i HI III i uchun yerlarni sotib olishda haqiqiy o'rnini н IIIIII i . I и >iichlilagini ta'minlash uchun yerning qiymati, II Ini \* I 'in niiiirali foydalanish uchun yerdan foydalanish tartibi. i 'm i nqilona boshqarish uchun birinchi galda yer > it и .... и <Invhit lizimi zarur. Unda yerlarni ro'yxatga olishning

link Min i, ya'ni ro'yxatga olishning mavjud mexanizmi 1\*i ... ..... Ba'zi bir mamlakatlarda esa ye'i'ga mulkchilik M41 hi i' nndagi ma'lumotlarning aniqligiga kafolatlar berish

..... In mi. I Sunday huquqlar ma'lum shaxslarga yoki bir guruh illil и ! и "ii ItiTilishi mungkin. Yerlarni ro'yxatga olish yerga bo'lgan Hi|n j\*11 Mill olish, bunday huquqdan foydalanish va uni tasarruf It It in Inin ishonchli va aniq belgilangan asosni ta'minlashdan И и м и) 11 Ii

I>miIustri tizimi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va 1 mini linmkorlari, milliy, xalqaro sarmoyalash va kreditlash "I И 'Пни i savdo va ishbilarmon korxonalar uchun, shuningdek

in ..... iithun zaruriy kafolatlar bergani holda jamiyatda tartib Iiihhhlh I n>nrorlikni ta'minlashi zarur. Yerlarni ro'yxatga olish •1 mil I-11 |nucha alohida subyektlarning manfaatlarini ta'minlashga I.....I- HI bo'lsa-da, ular milliy yer siyosatining muhim quroli ■■mi In Ii|lc.odiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib i 111ill 111Imllilar.

i nilii-ili - bu ma'lumotlarni bir tizimga keltirilgan to'plami 1 I lb " ikki qismdan iborat: barcha yer uchastkalarini joylashgan H\*i nil'll I lirg'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan xarita va I I "i n linmda ularning xarakterli xususiyatlarining matnli izohi. i"ii iiniinlakatlarda «kadastr» atamasiga turlich raqabatli beriladi.

<sup>1</sup> .....и larzda qabul qilingan tushunchaga binoan, kadastr yer

Ifiuiln unda joylashgan yoki u bilan bog'liq bo'lgan obyektlar ■ и I lnf J ma'lumotlarni o'zida jamlagan axborotlar tizimidan n i ii'ln «Axborotlar tizimi» atamasi odatda kenglik to'g'risidagi ■ I»-I i -I Ini' diapazoniga qo'llaniladi. U o'z ichiga ekologik va ijtimoiy

-iqtisodiy ma'lumotlarni, shuningdek, infratizimning tarkibiga ki- ruvchi ma'lumotlarni oladi. Kadastr mulk huquqi qiymati va yer uchastkalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga anchagini aniq e'tiborni qaratadi.

Kadastrga quyidagi ma'lumotlarni kiritish mumkin: geometrik ma'lumotlar (koordinatalar, xaritalar); ijara shartnomasini amal qilishining xarakterli muddatlari binolar va xonadonlaming ancha kengaytirilgan qurilish tavsifnomalari; aholi soni; yer solig'ining miqdorlari. Bu ma'lumotlar alohida yer uchastkalariga tegishli bo'lishi, mulknini yoki ancha keng hududni qamrab olishi mumkin.

### **Mustaqil o'rghanish uchun savollar**

#### **6. Yer - ko'chmas mulk tushunchasiga ta'rif bering?**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
---------------------	---

### **I-BOB. AHOLI PUNKTLARI YERLARI KADASTRINI YURITISHNING NAZARIY MASALALARI**

1.1. Yer - tabiiy resurslarning muhim turi va aholi yashash joylarining makoni sifatida.....	6
1.2. Yerdan oqilonha foydalanish va yer islohoti. Hududiy-kenglik jihatidan rejalashtirishda kadastrning ahamiyati .....	14
1.3 O‘zbekiston Respublikasi yer fondining tarkibi va undan foydalanish .....	22
1.4.0‘zbekiston Respublikasi yer resurslarini boshqarislming tashkiliy tarkibi.....	33
1.5. Ko‘chmas mulk obyektlari tushunchasi .....	38

### **2- BOB. AHOLI YASHASH JOYLARI KADASTRINI ISHLAB CHIQISHNING USLUBIY MASALALARI**

2.1. Kadastr ishlarining rivojlanish tarixi .....	41 )
2.2. Aholi punktlarini joylashtirish va rivojlan Tirish .....	45
2.3. Aholi punktlarida yer kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari, mazmuni va unda qo‘llaniladigan tushunchalar hamda atamalar.....	51
2.4. Aholi yashash joy lari kadastrini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimi .....	57
<b>JL\$-Ko‘p</b> maqsadli kadastr tizimini yaratish va yuritishning chet el tajribalari. G‘arbiy Yevropa .....	79
2.6. 0‘zbekistonda aholi yashash joylari kadastro tizimining mazmuni.....	85
2.7. Aholi yashash joylarida davlat yer kadastrlarini tashkil etish va yuritish texnologiyasi.....	94

**3- BOB. AHOLI PUNKTLARI YERLARI KADASTRINI  
YURITISH**

3.1. Aholi punktlaridagi ko'chmas mulk obyektlarining davlat hisobi.	
Shahar bazis (kadastr) planining mazmuni va	
kvartallarni shakllantirish va kodlash tamoyillari .....	III
3.2r"Ko'chmas mulkka bo'lgan mulkchilik huquqini	
ro'yxatga olish tartibi .....	115
3.2.1. Ko'chmas .....mulknini ro'yxatga olish tushunchasi	
155	
3.2.2. Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar.	
Ko'chmas mulklar funksional mohiyatining o'zgarishi.....	119
3.2.3. Kadastr materiallarni tayeiashni belgilaydigan	
hujjatlar turlari .....	123
3.2.4. Ko'chmas mulk obyektlarini birlamchi ro'yxatga	
olish tartibi .....	126
3.2.5. Ko'chmas mulk obyektlarini identifikatsiyalash .....	128
3.2.6. Reestr tushunchasi hamda uni yuritish tartibi .....	131
3.2.7. Servitutlar va saqlashlarni hisobga olish tartibi.....	137
3.3. "Aholi punktlarining toifalari va hududlari bo'yicha	
yer solig'i stavkalarini tabaqalashtirish .....	138
3.4. Ko'chmas mulk. Ko'chmas mulk obyektlari va ularni guruhlash.	142
3.5. Qiymat va baho tushunchalari. Ko'chmas mulk bozori	
va uning asosiy funksiyalari .....	146
3.6. Ko'chmas mulknini baholash tamoyillari .....	151
3.7. Yoppasiga....baholash va ko'chmas mulklarning alohida	
obyektlarini baholash .....	155
/3.8. Aholi punktlaridagi yer uchastkasining qiymatini	
baholash usullari .....	160
3.9.....Ishlab chiqarish obyektlarining qiymatini baholash .....	165
,3.10. Yer uchastkalarini qiymat jihatidan baholash (respublikadagi	

Bobojonov Allabergan Ro‘zimovich Ro‘ziboyev  
Sobir Boymirzayevich

AHOLI YASHASH JOYLARI KADASTRI

*O‘OUV QO’LLANMA*

Muharrir A. MUXTAROV Dizayner R.  
SATTAROV Texnik muharrir H.SAFARALIYEV  
Sahifalovchi O. MUXTAROV

Bosishga 20.09.2011 yilda ruxsat etildi. Bichimi  
60x84 1/16. Hajmi 11,0 b.t. Adadi 500. Bahosi  
kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 052.

“Tafakkur” nashriyoti.  
E-mail: [maktub@tafakkur.uz](mailto:maktub@tafakkur.uz)

“TAFAKKUR” nashriyoti bosmaxonasi. Toshkent  
shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.